

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BITIRUVCHILARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNI
TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN O'RGATUVCHI MODULLI TIZIMNING
SAMARADORLIGI**

S.S. Isakov

Farg'onan davlat texnika universiteti , "Arxitektura va kompyuter grafikasi"
kafedrasiga kattao'qituvchisi.

K.K. Polotov

Andijon texnika instituti "Arxitektura va gidrotekhnika" kafedrasiga kata o'qituvchisi.

akhmadjon00@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15306328>

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta'limga muassasalarida bitiruvchilarni ishga joylashtirishni ta'minlashga qaratilgan o'rgatuvchi modulli tizimning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashdirish orqali mutaxassislik fanlarini o'rgatish tizimini takomillashtirish zarurati tahlil qilinadi. Shuningdek, modulli ta'limga tizimi yordamida ta'limga jarayonini modernizatsiya qilish, kasbiy faoliyatga tayyor bo'lgan, mehnat bozorining talablariga javob beradigan bitiruvchilarni tarbiyalash muammosi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, o'rgatish metodlarini yangilash, amaliyotning ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg'unlashuviga va o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish orqali bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni taqdim etadi.

Tayanch so'zlar: modul, interaktiv dinamik ustunlik, paralellik, differentsiyal-dinamik, professional mehnat standarti.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННОЙ
НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ТРУДОУСТРОЙСТВА ВЫПУСКНИКОВ ВУЗОВ**

Аннотация. Данная статья посвящена изучению эффективности обучающей модульной системы, направленной на обеспечение трудоустройства выпускников высших учебных заведений. В статье анализируется необходимость совершенствования системы преподавания профильных дисциплин путём интеграции теоретических знаний с практическими навыками в процессе подготовки высококвалифицированных специалистов. Кроме того, рассматривается проблема модернизации образовательного процесса с использованием модульной системы обучения, подготовки выпускников, готовых к профессиональной деятельности и соответствующих требованиям рынка

труда. В рамках исследования представлены практические предложения, направленные на повышение эффективности трудоустройства выпускников за счёт обновления методов преподавания, интеграции практики с производственными процессами и модернизации учебных программ.

Ключевые слова: модуль, интерактивное динамическое преимущество, параллельность, дифференциально-динамический, профессиональный стандарт труда.

EFFICIENCY OF A MODULAR TRAINING SYSTEM AIMED AT ENSURING EMPLOYMENT OF UNIVERSITY GRADUATES

Abstract. This article is devoted to the study of the effectiveness of the educational modular system aimed at ensuring the employment of graduates of higher educational institutions. The article analyzes the necessity of improving the system of teaching specialized disciplines by integrating theoretical knowledge with practical skills in the process of training highly qualified specialists. In addition, the article examines the issue of modernizing the educational process through the use of the modular learning system, with the goal of preparing graduates who are ready for professional activity and who meet the demands of the labor market. The study presents practical recommendations aimed at increasing the effectiveness of graduate employment by updating teaching methods, integrating practical training with production processes, and modernizing academic curricula.

Keywords: module, interactive dynamic advantage, parallelism, differential-dynamic, professional labor standard.

Kirish qismi. Yuqori malakali mutaxassislar ehtiyoji bugungi kunda jiddiy muammo sifatida dolzarb bo‘lib, bu muammo ta’llim tizimida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy o‘qitish metodikalarining yangilanishi va o‘quv dasturlarining ishlab chiqarish va mehnat bozorining talablariga moslashtirilishi zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda ushbu tizimni joriy etish orqali bitiruvchilarining ishga joylashishini ta’minlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.[1,2,3,4]

Oliy ta’lim muassasalari mutaxassislik bo‘yicha pedagogik ta’lim tizimi bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasiga oid samarali choralarни ishlab chiqishda to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lishi va o‘z mutaxassisligi bo‘yicha to‘liq faoliyat yurita oladigan professional mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajarishi zarur.

Oliy ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha, soha yoki tarmoqdagi muayyan tashkilotlar va korxonalarda malakaviy amaliyotlarni muntazam ravishda o‘tkazish, shuningdek, ularning amaliy mashg‘ulotlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida tashkil etish va bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalasida aniq choralar ishlab chiqish juda muhimdir.

Maqsad – ushbu ta’lim yo‘nalishi va bitiruvchilarni ishga joylashish masalasini hal qilish dasturini zamonaviylashtirish orqali professional mehnat standarti talablariga javob beradigan bakalavr va magistrлarni tayyorlashdir.

Vazifa – har bir sohada ta’lim jarayonida professional mutaxassislarni tayyorlashda oily o‘quv yurtlarida mutaxassislik bo‘yicha pedagogik ta’lim tizimini to‘g‘ri yo‘naltirish va o‘z sohasida to‘liq faoliyat yurita oladigan bo‘lajak mutaxassisni tarbiyalashni ta’minlashdan iborat.

Asosiy qism. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash kerakki, oily ta’lim muassasalarida yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash ta’lim dasturida o‘qiyotgan va bitirayotgan talabalar o‘z kasbida va mutaxassislikda to‘liq faoliyat yurita oladigan, ya’ni kasbiy funktsiyalarni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘lishi, shuningdek, professional mehnat standartlari talablariga mos kelishi va zarur bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Oliy ta’lim tizimida o‘quv dasturlarini yangilash zarurati ko‘pincha bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda samarali va to‘g‘ri o‘qitish uslublarining yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mutaxassislarni tayyorlash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, fundamental bilimlarni berish imkoniyatlarini kengaytirish va har bir yo‘nalishni yanada chuqurlashtirishga qaramasdan, ta’lim jarayonida bitiruv malakaviy ishining mavzulari faqat ta’lim tugashiga yaqinroq paytda taqdim etilishi holatlari hali ham uchrayapti. Bunday vaziyat bo‘lajak mutaxassislarga o‘z kasbida faoliyat boshlash imkoniyatini cheklamoqda. Bitiruv malakaviy ishiga ajratilgan vaqtning qisqarishi esa, yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu muammo hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu muammoni samarali hal etish uchun har bir soha va yo‘nalish bo‘yicha ta’lim jarayonini bo‘lajak mutaxassislarni amaliy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirish, shuningdek, bitiruvchilarning bandligini ta’minalashga qaratilgan aniq va tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir. Bu borada, o‘quv jarayoniga o‘rgatuvchi modulli tizimni joriy etish va uni mutaxassislik bo‘yicha tayyorlovning ajralmas qismi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, talabalar amaliyot o‘taydigan tashkilot (korxona) lar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, real ish muhiti asosida model yaratish, mutaxassislarni tayyorlash jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliyot faoliyatini amalga oshiruvchi muassasa (korxona) larni tashkil etish quyidagi yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Eng avvalo, oquv jarayoniga o‘rgatuvchi modul tizimini samarali joriy etish uchun, barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan viloyat darajasidagi boshqaruvi muassasa (korxona) larini oily ta’lim muassasalarini hududiga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu korxonalar doimiy faoliyat olib borishi uchun zamonaviy, professional mehnat standartlariga javob beradigan bino va infratuzilma bilan ta’minlanishi lozim. Zero, turli sohalarda hukumat qarorlarini amaliyotga tadbiq etish jarayoni aynan mana shunday muassasa va korxonalardan boshlanadi.

Ushbu modul tizimi oily o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlariga joriy etilishi mumkin va bu, bo‘lajak mutaxassislarning o‘z kasbida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga, ish faoliyatida barcha imkoniyatlarni samarali ishlatalishga, shuningdek, bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalasini hal etish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan korxonalar ikki guruhga ajratilishi va guruhlar bo‘yicha mutaxassislikka mos tarzda tashkil etilishi zarur. Birinchi guruhda, OTM professor-o‘qituvchilarini tomonidan nazariy bilimlar berilsa, ikkinchi guruhda esa, korxona mutaxassislari va OTM professor-o‘qituvchilarini birgalikda muassasa (korxona) larda amaliyot o‘taydilar. Shu maqsadda, fan dasturlarini (bosqichma-bosqich) takomillashtirish bo‘yicha real ishlab chiqarish jarayonlariga mos fan dasturi ishlab chiqiladi. Bitiruv malakaviy ishining (BMI) topshiriqlarini mukammal bajarilishini ta’minalash uchun, mavzu takliflari rejasini tayyorlash va bu rejani tegishli organlar bilan kelishish zarur bo‘ladi.

Birinchi bosqichda, o‘quv yilining yakuniga qadar barcha sohalarda va yo‘nalish bo‘yicha korxona bilan kelishilgan fan dasturi asosida I-kurs talabalariga, OTM professor-o‘qituvchilarini tomonidan haftada bir marotaba nazariy bilim beriladi. Shu bilan birga, korxonada, korxonaning etakchi mutaxassislari va oily o‘quv yurtining professor-o‘qituvchilarini bilan hamkorlikda, yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan xatlar (arizalar) hamda hukumat qarorlarining ijrosini ta’minalash maqsadida ikki marotaba amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Natijada, talabalar hujjatlarni rasmiylashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, korxonalarda joriy etilgan innovatsion texnologiyalarni o‘rganish hamda shaharsozlik normalari va qoidalari bilan ishslash kabi ko‘nikmalarga avtomatik ravishda moslashib boradilar.

Birinchi bosqich natijalari bo‘yicha talabalarining nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari baholanadi.

O‘quv yilida, ikki marotaba oraliq nazorat va o‘quv yilining yakunida amaliyotda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar hamda olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha electron hisobot tayyorlab taqdimot shaklida imtixon topshirilishi zarur.

Oraliq va yakuniy nazorat imtixonlari, korxona kengashi (soveti) da etakchi mutaxassislar ishtirokida qat’iy nazorat ostida o‘tkazilishi muhim.

Oraliq va yakuniy nazorat imtixonlarini o‘zlashtira olgan talabaga, BMI mavzusinibosh boshqarma, muassasa (korxona) da tashkil etilgankengash (soyet) xulosasiga muvofiq ruxsatnoma berishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinci bocqich – korxonada ishlab chiqilgan fan dasturi asosida, korxonaning sohasiga mos ravishda muammolar bankini shakllantirish orqali, BMI (bitiruv malakaviy ishi) mavzularini 2-kurs (III-semestr) ning boshidan boshlab, oily ta’lim muassasasining yakuniy kursi (bosqichi) gacha o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari amaliy mashg‘ulot darslarining ishchi o‘quv dastur (syllabus) lariga kiritish va shu asosda amaliy o‘rgatish jarayonini modulli tizim orqali samarali yo‘ga qo‘yishdan iborat. Ushbu tizimning ishlab chiqilishi, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Albatta bunday ishchi ta’lim moduli asosiy fundamental ta’lim tizimi asosida o‘zgartiriladi va shakllanadi.

Maqsadimiz – oily ta’limga yo‘naltirilgan modulni asosiy jihatlari va o‘ziga xos taraflarini ko‘rib chiqishdan iborat.

Oliy ta’lim tizimida amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitishni bir necha xil usuli mavjud.

Birinchi usul – talabalarga interaktiv o‘qitish, ishlab chiqarishdagi faoliyatini tashkil etish orqali professional muhitga jalb qilishdan iborat.

Ikkinci usul tarafdarlari amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim deganda professional yo‘naltirilgan texnologiyalar tizimi, shu bilan birga nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiqini tushunadi.

Barchamizga ma’lumki, oily ta’limdagi kasbga oid didaktika bu, pedagogikani yaqinda rivojlanishni boshlagan jabhasi bo‘lib, oxirgi 33 yilda faol rivojlanib kelmoqda..

Talabadagi kasbga oid didaktika (fikrlashi) umumiy pedagogikadagi nazariy bilimlardan kelib chiqqan imkoniyatlar, tizim va ketma-ketlik asosida shakllantirilmoqda. Lekin o‘qitish jarayonida nazariyani real professional faoliyatga aloqasi, singdirilishi va tadbiq etilishi yo‘qligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bu muammoni echimi sifatida biz o‘zimizni “o‘qitish uslubini” taklif qilmoqchimiz. Bu uslub rasmiyatchilikdan, umumiylashtirilgan o‘qitish ketma-ketligidan holi bo‘lgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va differentsional-dinamik usullar kombinatsiyasidan tashkil topgan bo‘ladi.

Differentsional (ham nazariy, ham amaliy) yondashuvli o‘qitish strukturasiga ega bo‘lgan moduli ta’limi ikkita asosiy tamoyillardan tashkil topgan: Birinchisi – nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni bosqichma-bocqicho‘rgatish; Ikkinchisi – parallelism bo‘lib, bunda ikki usulni bir vaqtida mavjudligi asosida yoki nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni ustunligi tushuniladi.

Ta’limni bir biridan farqli hususiyatlariga ega bo‘lgan qismlari (nazariy va amaliy ko‘nikma) dan kelib chiqqan holda o‘qitish jarayonini quyidagi ko‘rinishi bo‘ladi: O‘qitish jarayonini birinchi bosqichda – boshlang‘ich kurslarda nazariy, fundamental bilimlar berilishi ustunlik qiladi. Lekin bir vaqt ni o‘zida nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish va kasbga oid faoliyatda foydalanish o‘rganiladi.

Bu bosqichda talaba mustaqil kasbga oid izlanishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishni, kasbga oid fikrlashni (logikani) o‘rganadi.

Mohiyati bo‘yicha oily muassasadagi ta’lim talabidan maxsus xususiyatlarga (hunarga, kasbga) ega shaxs (kadr) ni shakllanishiga chorlov (motivatsiyalov) chi vosita hisoblanadi.

O‘qitishning birinchi bosqichida ana shu jarayonga tayyorgarlik olib boriladi.

O‘qitish jarayonining ikkinchi bosqichida –katta kurslarda nazariy bilimlar asosidagi fikrlash (logika) asosida kasbga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, bu bosqich amaliy ko‘nikmalar ustunligida (dominirovaniye) amalga oshiriladi. Bu bosqichda nazariy bilimlardan ijodiy foydalanish (nazariyani amaliyotga tadbiq qilish), nazariy bilimni amaliyotdagи o‘rnini aniqlash, ana shu aniqlangan o‘rinda ishlatish, ijod qilish (mutaxassis sifatida fikrlash).

Hozirgi vaqtida oliygohda seminar darslar amaliy bilimlarni o‘zlashtirishni, hamda talabalarda kasbga oid fikrlashni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Seminar darslar sohani chuqurroq o‘rganishga, kasbga oid izlanish usullarini o‘rganishga mo‘ljallangan, asosiy maqsad esa talabalar ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va nazariy bilimlarini sohada ishlatish imkoniyatini beradi.

Biz bu bosqichda to‘laqonli mutaxassis kadr shakllanishi uchun samaraliroq o‘qitish uslubini taklif qilmoqdamiz. Bu o‘qitish uslubi amaliy yo‘naltirilgan modulli o‘qitish tizimida, bazasida ya’ni, real ishlab chiqarish korxonasida amalga oshiriladi.

Amaliy yo'naltirilgan va o'qitish korxonasining bunday ko'rinishi sohaga oid amaliy ko'nikmalarni egallahshni ta'minlab beradi. Bunda nafaqat tajriba orttiriladi, balki shunday shaxsiy qobiliyatlari ya'ni, talabani professional faoliyatda aktiv ishtirokiga imkoniyat beradi.

Amaliy yo'naltirilgan ta'limda harakat va jarayonlar talaba tomonidan ko'p marotaba takror-takror bajariladi va uni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Bu uslubning asosiy maqsadi va o'ziga xosligi talabadan kelajakda o'z kasbini ustasini tarbiyalashdir. Bu uslub o'z o'rnida bir necha bo'limlardan, faoliyat va jarayonlardan iborat bo'lib, o'qish va uqishni bir biriga yaqinlashtiradigan omildir.

Oliy o'quv yurtidagi uzluksiz bosqichma-bosqich ta'lim va nazariya yoki amaliyotni dinamik (dominirovaniye) ustunligi va parallellik printsiplariga asoslangan amaliyotga yo'naltirilgan dasturli modul tizimlari ta'lim samaradorligini oshiradi, ko'zlagan natijalarga erishishga imkoniyat beradi va professional kadrni shakllanish muammosini bartaraf qilib, ish o'rinalarini topishga yordam beradi.

O'rgatuvchi modulli tizimni joriy etish orqali ta'limning samaradorligini oshirish mumkin, chunki u nafaqat talabalar uchun nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Bitiruvchilarni ishga joylashtirishni ta'minlashda, ta'lim jarayonida ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, amaliyot jarayonlarini real ish muhitiga integratsiya qilish muhimdir. Ushbu modulli tizim, o'quv jarayoniga interaktiv o'qitish metodlarini qo'shish, talabalarga o'z kasblarini amaliy faoliyatda qo'llashga imkoniyat yaratish orqali mutaxassislik bo'yicha tayyorlov jarayonini yanada samarali qiladi.

Xulosa va takliflar. Oliy ta'lim tizimida modulli o'rgatish tizimining joriy etilishi, bitiruvchilarning ishga joylashuvini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tizimning samarali ishlashi uchun, o'qituvchilar va ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o'quv dastur (syllabus) larine ishlab chiqarish jarayonlari bilan moslashtirish zarur. Shu tarzda, talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni o'rgatish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash mumkin.

Talabaning BMI (bitiruv malakaviy ishi) mavzulari, 2-kurs (bosqich) ning III-semestridan boshlab, oliy o'quv yurtining yakuniy kursi (bosqichi) gacha mutaxassislik fanlaridano'tiladigan amaliy dars mashg'ulotlarining ishchi o'quv dasturi (sillabusi) ga ushbu tizim bo'yicha BMI (bitiruv malakaviy ishi) mavzularini kiritilishi bo'lajak mutaxassisiga nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish va ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash imkonini beradi.

Natijada, bu mutaxassislikka qo‘yilgan yuqori talablar asosida bilimga ega, samarali ishchi kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bunday kadrlar ish bozori bilan o‘zaro moslashgan holda avtomatik ravishda ish joyi bilan ta’minlanadi va shuningdek, zamon talablariga javob beradigan sifatlari mutaxassislar sifatida shakllananishiga asosiy omil hisoblanadi.

REFERENCES

1. Канаева Т.А., Профессиональное становление студентов СПО в контексте практико-ориентированных технологий. / Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №12(20), 2012, www.sisp.nkras.ru
2. Михеев В.А. Основы социального партнерства: теория и политика, практика: Учебник для вузов. М., 2007
3. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Смысл, 2001. – 365 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон.